

MIRZO ULUG'BEKNING ILM-FANGA QO'SHGAN HISSASI

Xalbayeva Sug'diyona Uchqun qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

Arxivshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan, madaniyat va me'morchilikning yuksak darajada rivojlanishi yoritilgan. Samarqandda rasadxona qurilishi, "Ziji Ko'ragoniy" asarining yaratilishi, madrasalar barpo etilishi va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shilgan hissasi bayon etilgan. Shuningdek, Mirzo Ulug'bekning davlat boshqaruvi, soliq siyosati, jamoat binolari qurilishi hamda "Tarixi arba' ulus" asarining ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Temuriylar, Mirzo Ulug'bek, rasadxona, asrtonomiya, ilm-fan, madrasalar, Samarqand, taraqqiyot, astranomiya.*

Temuriylar renessans davri XIV asr oxiri va XV asrlarda Temuriylar davlatida ilm-fan, madaniyat va san'atning yuksak darajada rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda Samarqand va Hirot shaharlari yirik ilmiy hamda madaniy markazlarga aylangan. Ushbu jarayon Amir Temur asos solgan davlat va uning avlodlari hukmronligi davrida yuzaga kelgan.

Keyinchalik Mirzo Ulug'bek, Shohrux Mirzo va Husayn Boyqaro davrida ilm-fan va madaniyat yanada rivoj topdi. Temuriylar davrida astronomiya, matematika, tarix kabi fanlar taraqqiy etdi, ko'plab madrasalar va ilmiy markazlar tashkil qilindi. Arxitektura va san'at ham yuqori darajada rivojlanib, ulkan me'moriy obidalar bunyod etildi.

Shu bilan birga, adabiyot va she'riyat ham yuksalib, bu davrda ko'plab iste'dodli shoir va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Bu davrda Samarqandda rasadxona qurilib, unda astronomik tadqiqotlar olib borildi. Temuriylar davrida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk ijodkorlar ham faoliyat yuritib, adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Ulkan saltanatning vorisi Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr adolatli, insonparvar, donishmand hukmdori sifatida xalqning tinchligi, totuvligi, madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoatini ko'rsatdi. Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay) Sohibqiron Amir Temurning nevarasi, Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li edi. U 1394-yil 22-mart kuni Temurning harbiy yurishlari vaqtida Iroqdagi Sultoniya shahrida tug'ilgan.

Ulug'bek bolaligini Temur saroyida o'tkazib, Saroymulk xonim va onasi Gavharshodbegim tarbiyasida voyaga yetdi. Uning ta'limiga alohida e'tibor berilib, dastlab Shayx Ozoriy (Hamza ibn Ali) dan savod, yozuv va hisob ilmini o'rgandi. Keyinchalik amir Shohmalikdan davlat boshqaruvi tajribasini egalladi. Mirzo Ulug'bek Muhammad Sultonning qizi O'gabegimga uylangach, "ko'ragon" ya'ni "xonning kuyovi" unvonini oldi. sababi, O'gabeginning nasli ona tomondan Chingizxonga borib taqalardi.

Shohrux Mirzo dastlab Ulug'bekni Xurosonning ayrim hududlarini boshqarishga tayinladi. 1406–1407-yillarda Tus, Nishopur, Sabzavor kabi bir qancha viloyatlar ham uning boshqaruviga topshirildi. Keyinchalik Dehiston va Astrobod ham qo'shildi. 1409-yilda Movarounnahr egallangach, Shohrux Mirzo Ulug'bekni bu o'lkaning noibi qilib tayinladi. U hali yosh bo'lgani uchun tajribali amir Muboriziddin Shohmalik unga yordamchi va otaliq sifatida biriktirildi¹².

Ulug'bek faqatgina fan bilan mashg'ul bo'lib qolmay she'riyat va san'ati bilan ham shug'ullandi. Alisher Navoiy "Majolisun-nafois"da Ulug'bek adiblarning homiysigina emas, she'riyatning qadriga yetuvchi edi, o'zi ham she'r yozar edi deb ko'rsatadi. Lutfiy esa Ulug'bek adabiyot va san'at namayondalarini o'z himoyasiga olganini ta'riflaydi:

Ulug'bekxon bilur Lutfiy kamolin
Ki rangin she'ri solmoqin qolishmas.

Ulug'bek davrida "Bog'i maydon" da "chxil ustun", "chinni xona" kabi go'zal qasrlar bunyod etilib, turli mamlakatlardan kelgan sozanda, hofizlar o'z san'atlarini namoyish etgan¹³.

1420-yili Samarqandda rasadxona qurilib ishga tushirildi. Rasadxonaning balandligini o'ng qavatli imoratga tengladi, uning sekstanti vaqtni ko'rsatuvchi asbob 175 ta pog'onadan tashkil topgan edi. Rasadxonada Ulug'bek, uning shogirdi Ali Qushchi, Chalabiy va boshqa olimlar osmon sirlarini o'rganish va sayyoralar harakatini kuzatib ilmiy tekshirish ishlarini olib borgan. Ulug'bek bir yilni 365 kun, 6 soat, 8 minut, 12 sekund, muddatini aniqladi va hozirgi zamon hisobidan 58 sekund ga farq qilgan. Mirzo Ulug'bekning yulduzlar harakatiga doir "Ziji Ko'ragoniy" asari o'rta asr ilmi handasa fanlari sohasidagi buyuk ilmiy yutuq hisoblanadi.

Mirzo Ulug'bek davrida din ahli foydasiga hunarmand va savdogarlardan yig'iladigan "tamg'a" solig'ini davlat foydasiga o'tkazdi. Bu soliqdan keladigan pulni fan-madaniyat taraqqiyotiga sarfladi. Ulug'bekning jaholatga qarshi qaratilgan ma'rifatparvarlik harkatlari, shuningdek o'zining Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqiga "Ilm talabi barcha musulmon va muslimlar (musilmon xotin-qizlar) uchun farzdir" deb yozdirib qo'ydi¹⁴.

1417-yil Buxoroda, 1417-1420 yillarda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar bino qilindi. Ushbu madrasalarda ilohiyot ilmlari: Qur'on, hadis, tafsir, fiqh, riyoziyot, xandasa, ilmi hay'at, arab tili va morfologiya kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan. Samarqandda Ulug'bek rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika ayniqsa astronomiya sohasida ko'plab natijalarga erishdi. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va O'rta Sharq mamlakatlari bo'lyalb joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi¹⁵.

Marv shahrida xayriya muassasalari qurildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Shuningdek,

¹² Ўзбекистон тарихи. Дарслик / масъул муҳаррир Муртазаев Р. Ҳ. – Тошкент, 2020. – Б. 219.

¹³ Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 12.

¹⁴ Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996. – Б. 19.

¹⁵ Муҳаммадҷонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, – Б. 58.

Ulug'bek karvonsaroy, tim, chorsu, hammom kabi talay jamoat binolari ham barpo ettirgan¹⁶.

Mirzo Ulug'bek nafaqat buyuk davlat arbobi, balki matematika (riyoziyot), astronomiya (falakiyot), musiqashunoslik va tarix ilmlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan ko'p qirrali olimdir. Uning ilmiy merosi orasida tarixnavislikka oid "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asari alohida ahamiyatga ega.

Ushbu asar 1425-yilda yozib tamomlangan bo'lib, u bevosita Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shaxsiy ishtirokida dunyoga kelgan. Matn mazmunini chuqur o'rganishdan avval, uning nomlanishi va yozilish tarixiga oid bir necha muhim jihatlarga to'xtalib o'tish joiz. Asar manbalarda asosan "Ulus-i arba'-i Chingiziy" (Chingiziyning to'rt ulusi) yoki "Tarixi arba' ulus" (To'rt ulus tarixi) nomlari bilan tanilgan. Yevropa olimlarining yondashuvi mazkur asarni birinchilardan bo'lib o'rgangan va uning qisqartirilgan inglizcha tarjimasini e'lon qilgan polkovnik Mayls hisoblanadi. Biroq, polkovnik Mayls yetarli ilmiy asoslarga ega bo'lmagani holda, ushbu kitobni "Shajarat ul-atrok" ("Turk hoqonlarining shajarasi") deb atagan¹⁷.

Ulug'bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo'lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo'lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug'bekning o'zi keyinchalik asosiy asari bo'lmish "Zij"ida faqat Qozizoda Rumiyni "ustozim" deb ataydi. Haqiqatan ham Qozizoda 1360-yillarda tug'ilgan bo'lib, 20-25 yoshlarida, ya'ni Ulug'bek tug'ilmasidanoq Temurning sarfiga o'tadi. Natijada Ulug'bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiylar kabi astronom va matematiklar ta'sirida ulg'ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchburchaklar bilimida esa Ulug'bek soya va tanjont qiymatlarini sakkiz o'nlik kasr va sakkiz xona a'shoryagacha aniq belgilagan. Ulug'bek davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. U tashkil etgan boy kutubxonada 15000 dan ortiq kitob bo'lgan¹⁸.

Ulug'bek hukmronligi davri Toshkent, Yettisuv va Mo'g'ulistondagi temuriylarga qarshi muxolif kuchlar harakati kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Shu sabab Samarqandga olib boruvchi ilono'tti darasini himoya qilish uchun Jizzax vohasida joylashgan Qaliyatepa, O'rda, Ravot va Moltop qal'a-qo'rg'onlari qayta ta'mirlanib, ularning harbiy salohiyati mustahkamlangan. 1425-yil Ulug'bek jetalar yurti bo'lgan Mo'g'ulistonga harbiy yurish qiladi va mo'g'ul xoni Shermuhammadxon ustidan g'alaba qozonadi. Bu g'alaba Ulug'bekning harbiy faoliyatidagi kam sonli, ammo eng muhim va yorqin zafarlardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu g'alaba haqidagi yozuv "Temir darvoza"ning baland qoyalaridan biriga o'yib bitilib, abadiy muhrlab qo'yilgan¹⁹.

¹⁶ <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/mirzo-ulugbek/> Murojaat qilingan sana 10-mart 2026-yil

¹⁷ Мирзо Улуғбек Тўрт улус тарихи. Бош муҳаррир Анбар Обиджон. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 2.

¹⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirzo_Ulug%CA%BBek Murojaat qilingan sana 10-mart 2026-yil

¹⁹ Ширинов Т. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи (ЎММТ). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА "Фан", 2001. – Б. 253.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Mirzo Ulug'bek o'z davrining hukmdori bo'lishi bilan bir qatorda yetuk olim sifatida dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan temuriy hukmdorlaridan hisoblanadi. Uning tarix fani uchun qoldirgan ilmiy merosi "To'rt ulus tarixi" bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Mirzo Ulug'bekning ilm-fanga qo'shgan hissalarini sanab o'tilsa, Samarqand rasadxonasini qurishi, yulduzlar katalogini yaratishi, astronomiya va matematikani rivojlantirishi va Samarqandni dunyoning ilmiy markazlaridan biriga aylantirishga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон тарихи. Дарслик / масъул муҳаррир Муртазаев Р. Ҳ. – Т.: 2020. – 470 б.
2. Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1996. – 87 б.
3. Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996. – 124 б.
4. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, – 156 б.
5. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/mirzo-ulugbek/> Murojaat qilingan sana 10-mart 2026-yil
6. Мирзо Улуғбек Тўрт улус тарихи. Бош муҳаррир Анбар Обиджон. – Т.: Чўлпон, 1994. – 224 б.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirzo_Ulug%CA%BBbek Murojaat qilingan sana 10-mart 2026-yil
8. Ширинов Т. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи (ЎММТ). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА Фан”, 2001. – 256 б.